

Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 293-sonli qarori asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Bo‘lim ta’lim muassasalariga talabalarni qabul qilish maqsadida o‘tkaziladigan test sinovlari uchun murakkablik darajasi ta’lim standartlariga muvofiq bo‘lgan test materiallarini ishlab chiqish hamda ilg‘or test texnologiyalarini qo‘llash uchun mas’uldir.

Bo‘limning vazifalari:

respublika ta’lim muasssalariga o‘qishga qabul qilishda test sinovi orqali tanlab olish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

bo‘lim faoliyati bilan bog‘liq huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga talabalar qabul qilish maqsadida o‘tkaziladigan test sinovlari uchun murakkablik darajasi ta’lim standartlariga muvofiq bo‘lgan test materiallarini ishlab chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilar hamda xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar olish uchun o‘tkaziladigan test sinovlarining test topshiriqlari bazasini yaratish;

qobiliyatli yoshlarni izlash va tanlash tizimini takomillashtirishda ishtirok etish;

test sinovlari jarayoni uchun ilg‘or test texnologiyalarini joriy etish;

rivojlangan xorijiy davlatlarning test texnologiyalari borasidagi tajribalarini o‘rganish.

Bo‘lim faoliyat yo‘nalishlari

Davlat ta’lim standartlariga muvofiq bo‘lgan test materiallarini ishlab chiqish; test topshiriqlarini tuzish va ekspertizadan o‘tkazish talablarini, uslubiy ko‘rsatmalarni, test sinovlaridan o‘tuvchi shaxslar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar hamda bo‘lim faoliyati bilan bog‘liq barcha huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish; test topshiriqlarini tuzish va ekspertizadan o‘tkazish uchun ijodiy guruhlarini tashkil etish; test topshiriqlarini tuzish va ularning ekspertizasi natijalariga ko‘ra test topshiriqlari jamg‘armasini

yaratish; test materiallarini tayyorlashda qatnashadigan shaxslarni o'qitishni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish; jahon tajribasini o'rganish asosida test sinovlari texnologiyasini takomillashtirish; test materiallarini ishlab chiqishda hamda ulardan foydalanishda ta'lim muassasalariga va boshqa muassasalarga maslahat yordamini ko'rsatish; test sinovlari tartibotlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan test materiallari mazmunining maxfiylikini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini bajarish

Bo'limning vakolati doirasida huquqlari

Test sinovlariga mo'ljallangan test materiallarini ishlab chiqish uchun ilg'or texnika va texnologiyalar bilan ta'minlangan bo'lishi; shartnoma asosida ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlari tarkibidan tanlov asosida saralab olinadigan olimlar, yetakchi pedagog-mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, ixtisoslashtirilgan, maqsadli va vaqtinchalik ilmiy-tadqiqot guruhlar va ijodiy guruhlarini tuzish; shartnoma asosida ilmiy-uslubiy va axborot konsalting xizmatlarini ko'rsatish; test texnologiyasi bo'yicha jahon tajribasini o'rganish maqsadida chet mamlakatlarga xizmat safariga borish; vazirliklar, idoralar, ish beruvchi korxonalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda tegishli ma'lumotlar va hujjatlar olish; DTM ilmiy-uslubiy kengashida, bo'lim faoliyati sohasidagi respublika va xalqaro seminarlar, konferentsiyalar, kongreslar, simpoziumlar va majlislarda ishtirok etish; test savollarini tuzish va ekspertizadan o'tkazish uchun ta'lim muassasalarining malakali mutaxassislarini jalb qilish.

Bo'limda amalga oshirilgan ishlar

2012 yil davomida bo'lim tomonidan o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy va harbiy oliy ta'lim muassasalari qabuli uchun test topshiriqlari bazasi shakllantirildi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar olish uchun jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik bo'yicha test sinovlari uchun va harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni test sinovidan o'tkazish uchun ona tili va adabiyot, tarix va matematika fanlaridan test savollari bazasi tayyorlandi. Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha Respublika olimpiadasining to'rtinchi bosqichi uchun 19 ta fan bo'yicha o'zbek, rus tillarida xalq ta'limi, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari, mutaxassislarini jalb etgan holda yangi test topshiriqlari bazaga kiritildi hamda boshqa turdagi test sinovlari uchun test savollari bazalari yaratildi.

Bo'lim tomonidan ta'lim muassasalariga qabul bo'yicha test sinovlari uchun test topshiriqlarini tayyorlash tartibi: fan ekspertlariga qo'yiladigan talablar, test topshiriqlarini tuzish uchun qo'yiladigan asosiy talablar, test topshiriqlarini ekspertiza qilish uchun qo'yiladigan talablar, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim

muassasalariga kiruvchilar uchun fanlardan tuziladigan test topshiriqlari variantlarining tasniflagichlari (spetsifikatsiyasi) ishlab chiqilgan bo‘lib, tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan tavsiya etilgan, o‘z fanini mukammal biladigan, kamida 5 yillik pedagogik mehnat staji, test topshiriqlarini tuzish va ekspertiza qilish malakasiga ega bo‘lgan hamda Davlat test markazi tomonidan tashkil etilgan, test tuzuvchilarga yo‘naltirilgan maxsus seminarlarda malakasini oshirgan ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalari mutaxassislari – fan ekspertlari ushbu tartib asosida test topshiriqlarini ishlab chiqishmoqda.

Bo‘lim tomonidan rejalashtirilayotgan ishlar

Avvalgi yillarda qabul bo‘yicha test sinovlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar, Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlaridagi ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan test topshiriqlaridan foydalanilgan bo‘lsa, 2013/2014 o‘quv yili sinovlari uchun test topshiriqlarining ko‘p variantlilik va teng huquqliligini ta‘minlash maqsadida, fan ekspertlari sifatida Respublikamizning barcha viloyatlaridagi ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarini jalb qilish hamda test topshiriqlarini ishlab chiqish va ekspertizasini o‘tkazishga oid seminarlar tashkil etish rejalashtirilgan. Jumladan, joriy yilning 3-7 yanvar kunlari Buxoro viloyatdagi Xalq ta‘limi va O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi boshqarmasi tasarrufidagi ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari, shuningdek, Buxoro davlat universitetining pedagoglari uchun test topshiriqlarini ishlab chiqish va ekspertizasini o‘tkazish bo‘yicha seminarlar tashkil etildi va fanlar kesimida test topshiriqlarini tayyorlash vazifasi yuklatildi.

Bo‘lim faoliyatida amal qiluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 14 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to‘g‘risida” gi 258-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-sonli “Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi [293-sonli](#) «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori.